

"Tahlil 25" ko'rsatuvi



Istiqlol yillarida yurtimizda avtomobil yo'llari qurilishi va ta'miri - yo'lsozlik bilan bir qatorda ko'priksizlik ham rivojlanib, o'zining yangi taraqqiyot bosqichiga chiqdi. Poytaxt va viloyatlarda qurilgan bir necha o'nlab ko'priklar fikrimizga dalil bo'la oladi.

O'zbekiston teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali ijodkorlari bilan hamkorlikda yaratilgan **"Tahlil 25"** ("**Tahlil 25**") ko'rsatuvi mamlakatimiz ko'priksizlarining o'tgan yillar davomida erishgan ulkan yutuqlari, ularning O'zbekiston taraqqiyoti va bugungi kundagi betimsol ko'rkiga qo'shgan betakror hissasiga bag'ishlanadi.

[Videolavhaga havola: http://www.uzavtoyul.uz/uz/site/video/26](http://www.uzavtoyul.uz/uz/site/video/26)

"O'zavtoyo'l" AK matbuot xizmati